JOURNALFLEDU.COM
Foreign Languages in Uzbekistan

Scientific Electronic Journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2026, vol. 12, No 5 (70), pp. 219–241
https://journalfledu.com
ISSN: 2181-8215 (online)

CREATIVE INTENTION AND ITS REFLECTION IN THE LITERARY TEXT

Bahor Bahriddinovna Turaeva

Doctor of Philological Sciences, Professor
Leading Researcher at the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan
turayeva.bahor@gmail.com
https://orcid.org/0000-0003-4019-7891
https://doi.org/10.36078/1794219196

(received: September 11, 2026; revised: October 10, 2026; accepted: October 20, 2026)

Abstract. This article examines the theoretical relationship between creative intention and its artistic expression. Since creative intention cannot be understood solely as the writer's idea or intended purpose, the study explores the factors that shape it, the stages of its development, the forms of its artistic expression, and its relationship with the author's conception as an interconnected system. The research employs comparative-theoretical, hermeneutic, systemic, and structural-poetic methods of analysis. The role of authorial intention in shaping and interpreting literary meaning is examined through a comparison of intentionalism, anti-intentionalism, and moderate intentionalism. Particular attention is given to the importance of the author's worldview, aesthetic ideals, personal experience, and principles of selecting aspects of reality for artistic representation in the formation of creative intention. The study also analyzes how creative intention is expressed through plot, composition, the system of characters, conflict, artistic time and space, and symbolic details. Based on a synthesis of theoretical approaches, authorial intention is classified according to its formation, duration, scope, artistic function, and relationship to the final result. The analysis demonstrates that the author's original intention may change, expand, or acquire new artistic meanings during the creative process. Accordingly, the study distinguishes between the full realization of creative intention, its partial realization, and the emergence of an artistic result that differs from the original purpose. The findings show that creative intention and the author's conception are closely related but conceptually distinct. While creative intention guides the creation and development of a literary work, the author's conception emerges through the relationships among its artistic elements. Examining creative intention within the overall poetic structure of a literary work, the interaction between form and content, and its general ideological and aesthetic conception provides a deeper understanding of the nature and artistic realization of creative intention.

Keywords: creative intention; author's conception; intentionalism; style; idea; literary interpretation; psychology of creativity.

IJODIY NIYAT VA UNING BADIIY MATNDA AKS ETISHI

Bahor Bahriddinovna To‘rayeva

Filologiya fanlari doktori, professor
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
yetakchi ilmiy xodimi
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada ijodiy niyat va uning badiiy ifodasi o‘rtasidagi bog‘liqlik nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Ijodiy niyatning mohiyatini faqat yozuvchining g‘oyasi va ko‘zlagan maqsadi bilan cheklab bo‘lmasligi bois yuzaga kelish omillari, rivojlanish bosqichlari, badiiy ifoda shakllari va muallif konsepsiyasi bilan aloqadorligi yaxlit tizimda o‘rganilgan. Tadqiqotda qiyosiy-nazariy, germenevtik, tizimli va struktural-poetik tahlil usullari qo‘llanilgan. Intensionalizm, antiintensionalizm va mo‘tadil intensionalizm nazariyalarida muallif niyatining badiiy ma’noni shakllantirish va talqin qilishdagi o‘rni qiyosiy o‘rganilgan. Ijodiy niyatning vujudga kelishida muallif dunyoqarashi, estetik ideali, tajribasi va tasvir uchun hayotiy voqelikni tanlash tamoyillarining ahamiyati yoritilgan. Uning syujet, kompozitsiya, obrazlar tizimi, konflikt, badiiy zamon va makon hamda ramziy detallar orqali voqelanish xususiyatlari tahlil qilingan. Nazariy qarashlarni umumlashtirish asosida shakllanishi, davomiyligi, qamrovi, badiiy vazifasi va yakuniy natijaga munosabatiga ko‘ra muallif niyati tasniflangan. Muallifning dastlabki maqsadi ijod jarayonida o‘zgarishi, kengayishi yoki yangi badiiy ma’nolar bilan boyishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Shu asosda ijodiy niyatning to‘liq amalga oshishi, qisman voqelanishi va dastlabki maqsaddan farqli badiiy natijaga aylanishi o‘rtasidagi tafovutlar aniqlashtirilgan. Tadqiqot natijalari ijodiy niyat va muallif konsepsiyasi o‘zaro bog‘liq, biroq mazmunan farqlanuvchi tushunchalar ekanini ko‘rsatadi. Ijodiy niyat asarning yaratilishi va shakllanishiga yo‘nalish bersa, muallif konsepsiyasi uning badiiy unsurlari o‘rtasidagi aloqadorlik asosida yuzaga keladi. Ijodiy niyatni asarning yaxlit poetik tizimi, shakl va mazmun unsurlarining o‘zaro aloqadorligi hamda umumiy g‘oyaviy-estetik konsepsiyasi bilan bog‘liq holda tahlil qilish uning badiiy voqelanish xususiyatlari va mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: ijodiy niyat; muallif konsepsiyasi; intensionalizm; uslub; g‘oya; badiiy talqin; ijod psixologiyasi.

Kirish

Adabiyotshunoslikda ijodiy niyat badiiy asarning yaratilishi va muayyan g‘oyaviy-estetik mazmun kasb etishini anglatuvchi muhim nazariy tushunchalardan biridir. U yozuvchining ijodga kirishish sabablari, hayotiy voqelikka munosabati, maqsadi hamda badiiy ifoda vositalarini tanlash jarayoni bilan uzviy bog‘liq. Ijodiy niyatni faqat yozuvchining dastlabki maqsadi sifatida tushunish uning murakkab tabiatini to‘liq ochib bermaydi. Niyat asar yaratish jarayonida rivojlanadi, yangi mazmun bilan boyiydi. Ijod

davomida o‘zgarishi, murakkablashishi, ayrim jihatlari badiiy matnda to‘la ro‘yobga chiqmasligi, aksincha, muallif ko‘zlamagan mazmunlar paydo bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ijodiy niyatni badiiy faoliyatning ilk turtkisi, ijod jarayonidagi yo‘nalish va matnni yaratishdagi maqsadlar majmuyi sifatida tushunish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv badiiy niyatni estetik ideal, janr, mavzu, syujet, kompozitsiya, muallif, obrazlar tizimi, ramz va detallar bilan yaxlitlikda o‘rganishga imkon beradi.

Ijod qilish qobiliyati, ijodiy jarayon — buyuk sir-u asror. San’at asarining yaratilish jarayoni ijodiy tasavvur, badiiy-poetik tafakkur, ichki botiniy sezgi, ilhom va izchil olib borilgan mehnat bilan bog‘liq. Odam fitratidagi intilish, harakat asosida nafsning hissasi muhimdir. “Nafs-i lavvoma”ning to‘rtdan birini “nafs-i mulhama” belgilaydi. Akademik Alibek Rustamov yozadi: “mulhamaning lug‘aviy ma’nosi ilhomlangan, ilhomlidir. Ilhom deganda kishiga biror sirli hodisaning to‘satdan ayon bo‘lishi tushuniladi. “Nafs-i mulhama” deganda esa kishida turli jozibali istaklarni uyg‘otuvchi kuch tushuniladi. Bunday nafs ko‘proq ilm, hikmat, san’at ahlida bo‘ladi. Bunday nafs egalariga hayajon, ijod, fidoyilik, go‘zallik va san’atni sevish kabi xislatlar xosdir” [Rustamov, 1987: 33–34].

Badiiy ijod jarayonining o‘ziga xosligi shundaki, san’atkor ijodiy niyatidanoq kitobxonga muayyan ta’sir qilishni ko‘zda tutadi. Aynan shunda ijod psixologiyasining botiniy sirli “sahna”sida badiiy asar o‘z yaratilish jarayoni (tarixi) bilan tegishli adabiy janrda “tug‘iladi”. Badiiy asar — adabiyotga, jarayon — muallifga taalluqli. Ilhomning hayratlanarli siri shundaki, badiiy asar ham, ijod psixologiyasi ham ayni muallifnikidir. Muallif asar badiiy olamini ijodiy reja va ilhom uyg‘unlashgan jarayonda yaratadi. Asar yozish jarayonida o‘zi yaratayotgan badiiy dunyoga tobora chuqur kirib boradi va go‘yo shu olamda yashay boshlaydi. Natijada asarda tasvirlangan ikkilamchi dunyo muallif poetik olamining bir qismiga aylanadi. Shu tariqa ijod jarayonining tabiiy kechishiga muallif zamoni ham qo‘shiladi. Bu subyektiv zamonda asarning g‘oyasi, kompozitsiyasi va mazmuni asta-sekin shakllanib, yaxlit badiiy dunyo tasviriga aylanadi. Muallif zamoni aslida ijodiy niyatning tug‘ilishi, ilhom, botiniy ijodiy jarayonlari va nihoyat, niyat-g‘oyaning badiiy-estetik shakl hamda mundarijada janriy yaxlitlikda adabiy asarga aylanish zamonigacha bo‘lgan jihatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Asarni muayyan janrda yozish fikri — tashabbusi ijodiy niyatning tug‘ilishidan, mavzuni tanlashdan va uning g‘oyaviy-estetik konsepsiyasini belgilashdan boshlanadi. Ijodiy niyatning tug‘ilishidan uni muayyan janrda matnga tushirishga kirishishgacha bo‘lgan ijod psixologiyasi jarayonlari ham muallif zamonida kechadi.

Jahon adabiyotshunosligida muallif niyati va badiiy asar o‘rtasidagi munosabat intensionalizm hamda antiintensionalizm nazariyalari doirasida keng muhokama qilingan. Ushbu nazariyalar markazida muallifning asar

yaratishdan ko‘zlagan maqsadi badiiy matn ma’nosini qay darajada belgilashi va adabiy talqinda qanday ahamiyat kasb etishi masalasi turadi.

Intensionalizm — badiiy asar ma’nosini anglash va talqin qilishda ijodiy niyatni asosiy mezon sifatida e’tirof etuvchi yondashuvdir. Ushbu yo‘nalishning namoyandasi E. D. Xirsh asarni anglashda muallif nazarda tutgan mazmunga tayanish zarurligini ta’kidlaydi. Uning qayd etishicha, muallifning asar orqali ifodalashni ko‘zlagan ma’nosi bilan mazkur asarning turli zamon va makonlardagi kitobxonlar uchun ahamiyati bir-biridan farqlanadi. Shu bois badiiy matnni talqin qilishda ijodkorning maqsadi, asar yaratilgan tarixiy-madaniy sharoit va adabiy an’analarni hisobga olish muhim [Hirsch, 1973: 8]. Olim badiiy asar ma’nosini o‘quvchining shaxsiy qarashlari bilangina belgilashga qarshi chiqib, muallif nazarda tutgan ma’noni badiiy matn xususiyatlari va tarixiy kontekst asosida aniqlashni ilmiy talqinning muhim vazifasi sifatida belgilaydi.

Antiintensionalizm — badiiy asar ma’nosi va estetik qiymatini muallifning dastlabki maqsadi asosida belgilashga qarshi qaratilgan nazariy yondashuvdir. Uning asosiy namoyandalari V. Uimsatt va M. Berdslining fikricha, yozuvchining asar yaratishdan ko‘zlagan maqsadi bilan shu maqsadning badiiy ifodasi bir xil hodisa emas. Muallif muayyan g‘oyani ifodalashni niyat qilgan bo‘lishi mumkin, ammo bu holat g‘oyaning matnda to‘liq aks etganini anglatmaydi. Shu sababli asarni tahlil qilishda ijodkorning shaxsiy mulohazalari, xotiralari yoki dastlabki rejalaridan ko‘ra matnning o‘ziga tayanish muhim hisoblanadi [Wimsatt & Beardsley, 1987: 468–469]. Mazkur yondashuvning mohiyati muallif niyatini asarning badiiy qiymati va ma’nosini belgilaydigan asosiy vositaga aylantirmaslikda namoyon bo‘ladi. Olimlarning talqinicha, badiiy asar ijodkorning shaxsiy kechinmalari yoki maqsadlari haqidagi ma’lumotlar umumlashmasi emas, til, obraz, kompozitsiya va boshqa badiiy vositalar orqali muayyan ma’no kasb etgan yaxlit estetik hodisadir. Shuning uchun asarning qanday ma’no anglatishini aniqlashda muallif nimani aytmoqchi bo‘lganidan tashqari, u badiiy matnda nimani va qanday ifodalay olganini ham o‘rganish muhim. Badiiy matn muallif niyatini ifodalash bilan birga, uni kengaytirishi, o‘zgartirishi yoki dastlab ko‘zlanmagan ma’nolar bilan boyitishi ham mumkin. Muallif niyatining mavjudligi inkor etilmaydi, balki uni asar ma’nosini izohlashning asosiy mezoniga aylantirish rad etiladi. Bu yondashuv ijodiy niyat bilan badiiy ijod mahsuli o‘rtasidagi farqni aniqlashga xizmat qiladi.

E. D. Xirsh matn, til va tarixiy dalillar yordamida muallif ifodalashni nazarda tutgan ma’noni aniqlashga intiladi. V. Uimsatt va M. Berdsli esa bunday dalillar asosida asarning o‘zida voqelangan ma’noni talqin qilishni muhim deb hisoblaydi. Ular uchun muallif niyati asar ma’nosi va estetik qiymatini belgilaydigan hal qiluvchi mezon emas. Demak, farq talqinning asosiy mezoni muallif nazarda tutgan ma’nomi yoki badiiy matnda voqelangan ma’nomi, degan masalada namoyon bo‘ladi.

N. Kerrollning muallif niyatiga asoslangan mo‘tadil talqin (modest actual intentionalism) nazariyasi muallif niyati va badiiy matn muvofiqligiga asoslangan yondashuv hisoblanadi. U antiintensionalizmdan farqli ravishda, yozuvchi niyatini asar ma’nosini tushunishda muhim omil deb hisoblaydi. Olim qat’iy va mo‘tadil intensionalizm o‘rtasida farq mavjudligini ta’kidlaydi. Qat’iy intensionalizmga ko‘ra, asar mazmuni muallif ko‘zlagan niyati asosida talqin etiladi. Mo‘tadil intensionalizmda esa yozuvchining maqsadi asar talqini uchun muhim bo‘lsa-da, uning har qanday niyati matnda muvaffaqiyatli amalga oshgan, deb hisoblanmaydi. To‘g‘ri talqin muallif niyatiga muvofiq bo‘lishi va badiiy matnning o‘zi bilan asoslanishi lozim [Carroll, 2000: 75–76]. Shu jihatdan, N. Kerroll nazariyasi yozuvchining maqsadi va asarning poetik tuzilishini bir-biridan ajratmagan holda tahlil qilish imkonini beradi. Ikki nazariyaning mohiyati muallif niyatini badiiy talqinda qanday dalil sifatida qabul qilish mumkinligi masalasida farqlanadi.

Intensionalizm badiiy asar ma’nosini anglashda muallifning asar yaratish jarayonida ko‘zlagan niyatini muhim talqin mezoni sifatida belgilaydi. Antiintensionalizm asar ma’nosini muallif maqsadi bilan bog‘lashni rad etib, badiiy matnning muallif niyatidan mustaqil ma’noviy yaxlitligini ta’kidlaydi. Mo‘tadil intensionalizm esa muallif ijodiy niyatini talqin jarayonida hisobga oladi, biroq uning ahamiyatini matnga muvofiqligi asosida belgilaydi. Bu yondashuvlar muallif niyatini aniqlash, uning badiiy matn bilan munosabatini tushuntirish va talqinning asosliligini baholashga xizmat qiladi.

Jahon va o‘zbek adabiyotshunosligidagi mavzuga daxldor tadqiqotlar tahlili mazkur muammoning uch asosiy yo‘nalish doirasida o‘rganilganini ko‘rsatadi:

1) ijodiy niyatning shakllanishi, davomiyligi, qamrovi va badiiy vazifasi bilan bog‘liq xususiyatlari;

2) ijodiy niyatning mavjudligini aniqlash va ilmiy asoslash imkonini beruvchi daliliy mezonlar;

3) dastlabki maqsadning asarning yakuniy mazmuni va badiiy shaklida qay darajada namoyon bo‘lishi.

Bunday yo‘nalishlar muallif maqsadi bilan asarning poetik tuzilishi o‘rtasidagi munosabatni aniqlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ijodiy niyat va muallif konsepsiyasining o‘zaro bog‘liqligini badiiy asarning g‘oyaviy-estetik yaxlitligi asosida tahlil qilish imkonini kengaytiradi.

Asosiy qism

Qadimdan hozirga qadar nazariy manbalarda ijodiy niyat turlicha talqin qilingan. Arastuning “Poetika”sida ijodkorning noyob tasavvur qobiliyati masalasi tragediya tahlilida keltiriladi. Agar asar nima uchun va nimani namoyon etish uchun yaratilayotgan bo‘lsa, voqealar tartibi ana shu yo‘nalishga xizmat qilishi kerak.

“Tragediyada aks ettirishning maqsadi ham qandaydir fazilatni emas, biror voqeani talqin etishdir [Arastu, 2015: 30]. Arastu tragediyaning asosini fabula deb biladi. Shu sababli, ijodkorning maqsadi voqealarni muayyan dramatik natijaga olib keladigan tarzda izchil tasvirlashda namoyon bo‘ladi. Olim talqinida ijodiy niyatning retseptiv jihati ham mavjud. Shoirning o‘zi kechirgan ruhiy holat tomoshabinga ko‘chadi. Bu ta’sir zamonaviy tushunchadagi “adresat-kitobxonga yo‘naltirilgan muloqot”ga yaqin: ijodkor voqeani tasvirlash bilan cheklanmaydi, uning qanday qabul qilinishiga ham ahamiyat qaratadi. “O‘zi hayajonlana oladigan shoir tomoshabinlarni hayajonlantira oladi, o‘zi g‘azablana oladigan kishi tomoshabinlarni ham g‘azablantira oladi” [Arastu, 2015: 47]. Demak, yozuvchi maqsadi ijodiy niyatni belgilash, tasvirlanayotgan voqeani chuqur his etish va tomoshabinda ham muayyan ta’sir uyg‘otishga intilishda namoyon bo‘ladi:

Sharq mumtoz poetikasida esa “ijodiy niyat” atamasi “niyat”, “maqsad”, “tilak”, “tab’”, “xayol”, “g‘araz”, “qasd”, “muddao”, “tasavvur” kabi tushunchalar orqali ma’lum ma’noda ifodalangan. Sharq mumtoz adabiy-estetik tafakkurining o‘ziga xosligi shundaki, unda hozirgi adabiyot nazariyasidagi ko‘plab kategoriyalar mustaqil termin sifatida emas, balki poetika, mantiq, balog‘at, axloq, falsafa va nutq nazariyasining umumlashma nuqtalarida muhokama qilingan. Muallif nimani ko‘zlagani, qanday ma’no yaratgani va bu ma’noni qanday shakl orqali yetkazgani haqidagi mulohazalar ijodiy niyatning mohiyatini tashkil etadi.

Shamsiddin Muhammad ibn Qays ar-Roziy bayon qilgan ta’rif hamda N. Y. Chalisova keltirgan Ibn Rashiq ta’rifida she’rning “niyat qilingan” nutq ekanini nazariy mezon darajasiga ko‘taradi. Bu o‘rinda niyat poetik nutqning o‘zini she’r sifatida tashkil etuvchi shartlardan biridir. Demak, ijodiy niyatning eng qadimgi nazariy belgilaridan biri — mazmun va shaklni ko‘zlab yaratilishidir: “She’riyat niyatdan (niyya) tashqari to‘rt narsaga asoslanadi: so‘z shakli (lafz), vazn, ma’no va qofiya” [Shams ad-Din Muxammad ibn Kays ar-Razi, 1997: 61]. Ijodiy niyat she’rning “nima haqida” ekanidangina iborat emas, u matnni aynan badiiy matn sifatida yaratish maqsadini ham ifodalaydi. Bunday yondashuvda uch jihat ayon bo‘ladi: badiiy qasd — badiiy asar yaratish qarori; mazmunni yetkazish niyati — muayyan ma’no, voqea yoki g‘oyani tasvirlash; shakl tanlash niyati — mazmun uchun mos janr, vazn, qofiya, kompozitsiya, nutq va tasvir vositalarini tanlash. Ijodiy niyat badiiy mazmunni shakliy vositalar orqali tasvirlash jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuvda “maqsud” tushunchasi yanada aniq mohiyat kasb etadi. Olima sharhida Shams Qays qasidani tavsiflar ekan, uning asosiy qismini “maqsud” deb atashi qayd etiladi. Etimologik jihatdan ham “qasada” — “bir tomonga intilmoq”, “maqsud” esa “murod, muddao, orzu yoki maqsad” ma’nolarini anglatadi. Bu ta’rif ijodiy niyatning kompozitsiyada qanday aks etishini ko‘rsatadigan muhim dalildir. Qasida misolida ko‘ramizki, muallifning ijodiy maqsadi janr kompozitsiyasining asosiy

jihatiga aylanadi. Nasib yoki tashbib kirish vazifasini bajaradi, “maqsud” esa yozishdan ko‘zlangan asosiy yo‘nalishni yuzaga chiqaradi. Shams Qays uchun qasidaning asosiy belgisi faqat madh emas, balki shoirda muayyan maqsadning mavjudligidir. Demak, ijodiy niyat asarning janriy xususiyatlarini belgilash va uning janriy tuzilishini shakllantirish xususiyatiga ham ega.

Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida shoirlarning baytlarini keltirar ekan, ko‘pincha ular “nima demoqchi bo‘lgan”, qaysi ma’noni “izhor qilgan”, qaysi holatni “muddao qilgan”ini sharhlaydi. Bu usul muallif niyatini baytning mazmuni orqali asoslashga intilishini ko‘rsatadi. “Majolis un-nafois”da shoir “tab’i”ga doir baholar ham bor. “Tab’” iste’dod, poetik mahorat, ijodiy qobiliyat ma’nolarini qamraydi. Biroq ijodiy niyatni faqat “tab’” bilan tenglashtirish mumkin emas: tab’ ijodkorning imkoniyati bo‘lsa, muddao ma’lum matnda shu imkoniyat qaysi yo‘nalishga safarbar qilinganini bildiradi. Hazrat Navoiy asarni yozishdan muddaosini shunday idodalagan: “Bu jihatdin Sulton Sohibqironning humoyun valodatlari zamonidin ro‘zafzun davlatlari davronig‘achakim, qiyomatg‘acha barqaror va olam inqirozig‘acha poydor bo‘lg‘ay, ulcha faqir eshitibmen, ammo xizmatlarig‘a yetmaymen va ulcha xizmatlarig‘a yetibmen, ammo holo bu fano dor ul-g‘ururidin baqo dor us-sururig‘a intiqol qilibdurlar va ulcha holo bu farrux zamonda namoyandadurlar va ul hazrat zoti malakiy sifotig‘a madh saroyandadurlar, jam’qililg‘ay va har qaysining natoyiji tab’idin biror nima nishona no‘sunluq yozilg‘ay. Chun bu maqsudg‘a yetildi, oni sekkiz qism etildi va har qismi nafis bir majlisg‘a mavsum bo‘ldi va majmu’ig‘a “Majolis un-nafois” ot qo‘yuldi.

Bu tuhfaki, xushmen ibtidosi birla,
Ham nazm latoyifi adosi birla,
Ummid bukim, umr vafosi birla,
Xatm aylagamen shoh duosi birla [Navoiy, 1997: 4].

Sulton Sohibqiron tug‘ilgan davrdan boshlab, uning hukmronligi zamonigacha yashagan va ijod qilgan shoirlar haqida ma’lumotlarni jamlashni istaganini, ularning ayrimlarini faqat eshitgan, lekin ko‘rmagani, ayrimlari bilan esa uchrashgani, ammo ular keyinchalik vafot etgani, ba’zilari esa o‘zi yashagan davrda ham hayot bo‘lganini e’tirof etgan. Navoiy ana shu shoirlarning barchasi haqida ma’lumot to‘plab, har birining ijodidan namuna keltirishni maqsad qilgan. Shu maqsad amalga oshgach, asarni sakkiz qismga bo‘lub, har bir qismni alohida “majlis” deb nomlagan. Shoir asarini xush niyat bilan boshlaganini, nazmning nozik jihatlari va go‘zal ifoda vositalari orqali bayon etishini ta’kidlaydi. Shuningdek, umr imkon bersa, asarni shoh duosi bilan yakunlashga umid qiladi. Ushbu misralarda muallifning dastlabki maqsadi, uni qanday badiiy shaklda ro‘yobga chiqarishga intilishi va asarni muayyan niyat bilan yakunlash istagi mujassam. Ijodiy niyat nafaqat asarni

boshlashga turtki beradi, balki uning mazmuni, badiiy ifodasi va ko‘zlangan natijaga erishish jarayoniga ham ta’sir qiladi.

Abdurauf Fitratning “Adabiyot qoidalari” asarida ijod jarayonini o‘y va tuyg‘ularni tartiblash va so‘z orqali ifodalashdan iborat bosqichli faoliyat sifatida ko‘rsatadi. U “ta’lif” tushunchasini fikr, muhokama, sezgi va tuyg‘ularni tartibga solib, so‘z bilan ifoda qilish deb ta’riflaydi. Ta’lif yo tasnif atalg‘an adabiy yumush bilan maydong‘a chiqqan narsaga asar deyiladir. Bir asarni yozg‘anda zehnimizning yumushi (xizmati) turli tuslarga kiradi: yozuvchi-adib boshda shul to‘g‘rida yozilaturg‘an bir narsani topadir. So‘ngra shu narsa to‘g‘risidag‘i o‘ylar, tuyg‘ularni oxtarib, topib yig‘adir. “Zehniy yumush”ning shu bo‘limiga ijod (bor etish — yarotish) deyiladir. Ijodning birinchi natijasi asarning mavzu’i, ikkinchi natijasi asarning mundarijasi bo‘ladir” [Fitrat, 2009: 14]. Bu fikr ijodiy niyatning faqat asardan oldingi niyat emasligini ko‘rsatadi. Ijodkor avval mavzu topadi, keyin shu mavzu atrofidagi o‘y, tuyg‘u va ma’lumotlarni yig‘adi, so‘ng ularni tartiblaydi. Fitrat asar tahlilini “mavzu’, mundarija, tartib, ifoda, uslub” orqali amalga oshirish joizligini e’tirof etadi. Fitratning ijodiy niyatga eng bevosita yaqin fikri “asar tilagi” tushunchasi bilan bog‘liq. U yozuvchi mavzuni tasodifan emas, ko‘zlangan fikr va g‘oyaga muvofiq tanlashini ta’kidlaydi: “Biroq adib-yozg‘uchi o‘z asarining tilagiga (g‘oyasiga) ko‘ra mavzu’ tollaydir; qanday bir tilakni ko‘zda tutib, qanday bir fikr bermakchi bo‘lib asar yozar esa, shunga kuchlirak boylangan bir mavzu’ni oladir” [Fitrat, 2009: 15]. Ushbu mulohaza ijodiy niyatning maqsadga yo‘naltiruvchi tabiatini ifodalaydi. “Asar tilagi” — muallif ko‘zlangan mazmun-mohiyat, mavzu esa ana shu tilakni ifodalash uchun tanlangan hayotiy va badiiy maydondir. Shuning uchun Fitrat mavzu asar tilagi bilan munosabatsiz bo‘lsa, yozuvchi mavzu tanlashda yanglishgan bo‘ladi, deydi. Bu mulohaza ijodiy niyatning asar tuzilishiga bevosita ta’sirini ko‘rsatadi, ya’ni maqsad ma’lumotlardan nimalar matnga kirishi va nimalar chetda qolishini belgilaydi. Adib mundarijani ham asar tilagiga bo‘ysundiradi. U mavzu atrofidagi barcha ma’lumotni yozish shart emasligini, asar tilagini ochib bera oladigan fikr, ma’lumot va voqealargina olinishi kerakligini ta’kidlaydi. Bu tamoyil ijodiy niyatning xususiyatini ochadi. Ijodkor voqelikdan “hamma narsani” emas, o‘z badiiy vazifasiga xizmat qiladigan unsurlarni saralaydi. Natijada kompozitsiya ham tasodifiy tartib emas, tanlangan hayotiy materialning maqsadga muvofiq uyushishiga aylanadi. Fitrat talqinicha, kitobxon qalbini junbishga keltirish ham yozuvchining asosiy maqsadi hisoblanadi: “Adabiy, she’riy asarlardan esa maqsad o‘quvchini qaynatmoq, unda ruhiy bir to‘lqun yaratmoqdir. Buning uchun xayol yordami bilan uslubni bezatish lozim ko‘rilgan…” Maqsad — “ruhiy bir to‘lqun” yaratish; vosita — xayol va uslub; natija — kitobxon javobi. Bu qarash zamonaviy ijodiy niyat nazariyasidagi “niyat — vosita — ta’sir” munosabatiga mushtarak.

Asar yozishdan avval materiallarni puxta o‘rganib chiqqan, hatto biror joy to‘g‘risida asar yozmoqchi bo‘lsa, o‘sha joyni avval necha martaba ko‘rgan bo‘lsa-da, yana borib tekshirib, yaxshiroq o‘rganganini qayd etgan Abdulla Qodiriy ijodiy reja asar yozish uchun naqadar muhimligini shunday izohlaydi: “Men materiallarni o‘rganish mahalida asarni qaysi xilda yozish haqida bosh qotirib yuraman. Shuning natijasida men o‘zimcha asarimning juda ham taxminiy bir sxemasini tuzib olib, keyin ishga tushaman. Shunday sxema bo‘lmasa, hech qachon yozuvga o‘tira olmayman” [Qodiriy, 1995: 4-5].

Yozuvchining ijodiy jarayonni oldindan rejalashtirish tamoyili, asar uchun zarur bo‘lgan materiallarni o‘rganishi, rejalashtirilgan asarni qanday shaklda yaratish haqida o‘ylashi, albatta, mantiqan asosli. “Taxminiy bir sxema” deganda asarning dastlabki ijodiy rejasi nazarda tutilgan, ya’ni adib syujetning umumiy yo‘nalishi, voqealar ketma-ketligi, obrazlar tizimi va asarning kompozitsion qurilishini oldindan tasavvur qiladi. Bu sxema qat’iy va o‘zgarmas reja emas, ijod jarayonida rivojlantirilib boriladi. Badiiy asar faqat ilhom mahsuli emas, uning yaratilishida materialni o‘rganish, fikrni jamlash, voqealarni tartibga solish va kompozitsiyani oldindan belgilash ham muhim ahamiyatga ega. Ijodiy niyat yozuvchining badiiy materialni tanlash va yaxlit badiiy konsepsiyaga aylantirish jarayonini boshqaruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Oybek “Navoiy” romanini qanday yozdim” maqolasida Navoiy yashagan davrga oid ko‘p tarixiy faktlar, materiallarni yig‘gani, ularni tahlil etib, mag‘zini chaqish uchun chuqur mulohaza yuritganini e’tirof etadi: “Bu ishga shu qadar g‘arq bo‘lgan edimki, romanning ish plani qog‘ozda yo‘q edi. U mening ko‘nglimda, yodimda edi, butun borlig‘imni band etgan edi. Yursam-tursam hamisha Navoiyni o‘ylar edim. Uning ma’nodor aqlli ko‘zlari, xushfe’l, rahmdil, olijanob qiyofasi, asl, pok ulug‘ qalbini his etardim, ko‘z o‘ngimda ko‘rardim. Uning teran, nozik, falsafiy fikrlarini to‘la tushunishga urinardim. Roman personajlari haqida, ularning xarakterlari, bir-birlaridan farqi, bir-biriga munosabatini ravshan, yaqqol berish ustida xayol yuritib, obrazlarni tarashlardim. Nihoyat, yurakka yiqqan, yurakda saqlangan bu materialni yoza boshladim. Shuning uchun asar yaratish kabi mushkul, og‘ir ish dunyoda yo‘qdir, — deyman… chuqur his etish, qalbning zo‘r hayajoni, o‘tkir fikr, fahm, ajoyib ilhom… bilmadim, yana va na xislatlar kerak” (Oybek). Badiiy asarning yaratilishi birdaniga yuz beradigan hodisa emas, uzoq davom etadigan niyatning shakllanishi, boyishi va matnda ro‘yobga chiqishi jarayoni ekani ayonlashadi. Ijodiy niyat hali to‘liq shakllanmagan holda namoyon bo‘ladi. Yozuvchi Navoiy asarlari, davri, jamiyatning ijtimoiy qiyofasi, urf-odatlari va xulq-atvorini o‘rganadi. Tarixiy material muallifning badiiy tafakkuri, estetik qarashi va ijodiy maqsadi orqali saralanadi hamda qayta talqin qilinadi. Ijodiy niyatning asosiy xususiyatlaridan biri ham shunda namoyon bo‘ladi. Oybekning “butun borlig‘imni band etgan edi”, “yursam-tursam hamisha Navoiyni o‘ylar edim” degan fikrlari ijodiy niyatning hissiy

tafakkur bilan uzviyligini ochib beradi. Demak, badiiy niyat ijodkor tasavvuri va tafakkurida uzluksiz rivojlanib borgan. Yozish — ijodiy jarayonning boshlanishi emas, undan oldin kechgan murakkab ichki tayyorgarlikning mahsulidir. Mazkur tayyorgarlik ijodiy niyatning murakkab tabiatini namoyon etadi. Obrazlar tizimi, ularning xarakteri va o‘zaro munosabatlarini oldindan tasavvur qilish natijasida asarning ichki tuzilishi shakllanadi. Shu jihatdan ijodiy niyat muallif estetik konsepsiyasi, badiiy asarning g‘oyaviy mazmuni, obrazlar tizimi, syujet-kompozitsion qurilishini birlashtiruvchi, asar yaratilishining barcha bosqichlarini boshqaruvchi ijodiy-estetik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Romanda prolog muallif niyati, voqealarning dastlabki sabablarini ochishga xizmat qiladi. A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar”ida “Yozg‘uvchidan” deb atalgan mashhur prologda muallif o‘z g‘oyaviy niyatini oshkor etgan va mavzuni *“o‘tmishdan, tarixning eng kir kunlari*”dan [Qodiriy, 2009: 5] tanlaganini asoslagan. Kitobxon bevosita mavzu, g‘oya, asar badiiy olamiga olib kiriladi. Muallif kitobxonni voqealarga bevosita “kirib” borishiga ma’naviy-ruhiy tayyorlaydi.

P. Qodirov qalamiga mansub “Yulduzli tunlar” romanining 1999-yilgacha nashr qilingan variantlarida prolog yo‘q. 1999-yilgi nashrida keltirilgan “Muallifdan” prologida mustabid tuzumning tazyiqi tufayli tarixiy haqiqatning yoritilmaganligi va mustaqillikka erishgandan so‘ng asardagi keyingi to‘ldirishlar haqida yozadi: *“Bobur mirzoning hayoti va faoliyatiga oid mavzular ummonday cheksiz. Bu ummonda o‘nlab, yuzlab adabiy kemalar suzishi mumkin. “Yulduzli tunlar” ana shu majoziy kemalardan biri tarzida yuzaga keldi. Uni 1972-yilda ilk bor yozib nashrga topshirganimda tog‘day bir yuk yelkamdan tushganday bo‘lgan edi. Lekin mustabid tuzum tazyiqi ostida roman olti yil chop etilmay yotdi. Bu yillar davomida o‘sha zalvarli yukni yana yelkamda ko‘tarib yurganday bo‘ldim. Qo‘lyozmani ko‘pgina mas’ul mutasaddilar, katta akademiklar o‘qib fikr aytishdi. Chop etish masalasi Qizil imperiya markazining ruxsati bilangina hal etilishi mumkin ekan. Qo‘lyozmaning satrma-satr tarjimasini Moskvada ham o‘qishib, yozma taqrizlar berishdi. Xilma-xil fikr va mulohazalar changalzoridan tikanlarga tirnalib o‘tdim, yo‘limdan adashib ketmaslik uchun doim tarix haqiqatiga, xususan —“Boburnoma”day asl manbalarga tayandim...*” [Qodirov, 1999: 3].

Yillar davomida romandagi ayrim noaniqliklar va nuqsonlar haqidagi tanqidiy fikrlarni xolis qabul qilgan hamda mazkur mulohazalarning asar poetikasini chuqurroq anglash va ayrim jihatlarini qayta ko‘rib chiqishda muhim ahamiyat kasb etishini e’tirof etgan. Zokirjon Mashrabov boshliq Bobur ekspeditsiyasi jahonni kezib, kashf etgan yangi tarixiy faktlar ushbu nashrda baholi qudrat hisobga olingan. *Bundan o‘ttiz yil muqaddam 1969-yilning yanvarida boshlangan bu ish, shoyadki, shu bilan nihoyasiga yetgan bo‘lsa”*,

deya umid qiladi. Yozuvchi ijodiy niyatiga erishdi, romandagi keyingi o‘zgarishlar badiiy to‘qima va tarixiy haqiqatni uyg‘unlashtirdi.

M. Qoriyevning “Spitamen” romanida prolog mavjud emas, lekin muallif asarni yaratish niyatini qisqacha epigrafda ifoda etgan: *“Xayol ko‘zgusi bilan tafakkurim yetgunga qadar ona diyorim tarixining uzoq o‘tmishiga nigoh tashladim; xalqimiz hayoti, turish-turmushi, kurashi sahifalarini varaqlab, undan olgan taassurotlarimga badiiy ifoda berishga urinib ko‘rdim* [Qoriyev, 1985: 5].

Muallif tarixiy o‘tmishga murojaat qilishdan maqsadi o‘tmish voqealarini zamonaviy tafakkur mezonlari asosida estetik jihatdan qayta yaratishga qaratiladi.

Yozuvchi o‘tmishga bugungi kun nuqtayi nazaridan murojaat qilib, tarixiy voqealarni milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar siymosini qayta tiklash vositasiga aylantiradi. Epigraf kitobxonni asarning tarixiy-badiiy olamiga olib kirish bilan birga, muallifning “tarixiy o‘tmishni badiiy tafakkur orqali qayta anglash”dan iborat ijodiy niyatini oldindan anglatadi.

Q. Yo‘ldosh milliy adabiyotshunoslik uzoq yillar mobaynida badiiy asarda adib niyati qay yo‘sinda ifoda qilinganini tekshirish o‘rniga asardan o‘zi xohlagan narsani izlab kelganini asosli ta’kidlaydi. Shuning uchun ham, ko‘pincha, yozuvchining qilmagan ishlariga munosabat bildirilardi. Holbuki, adabiyotshunoslikning vazifasi adib tomonidan qilingan ishning mohiyatini bilish va boshqalarga ham anglatishdan iboratdir [Yo‘ldosh, 2006: 100]. Uzoq vaqt davomida amalda bo‘lgan biryoqlama talqin tamoyilini tanqid ostiga olgan olim tadqiqotchi badiiy asarda muallif qanday g‘oyaviy-estetik maqsadni amalga oshirganini aniqlashdan ko‘ra, asardan o‘z qarashi yoki oldindan belgilangan mezonlarga mos mazmunni izlashga moyil bo‘lganini, natijada asarning mazmuni, muallifning ijodiy niyati yetarli darajada ochilmasligini qayd etadi. Muallif niyati talqinning yagona mezoni bo‘lmasa-da, asar badiiy mohiyatini anglashda muhim hisoblanadi. Olim antiintensionalizm yondashuvi nazariy jihatdan o‘zini oqlamasligini mulohazalari orqali asosladi.

XX asr G‘arb adabiyotshunosligida muallif niyati masalasi keskin bahslarni yuzaga keltirgan. XX asrning birinchi yarmida AQSh va Angliya adabiyotshunosligida shakllangan Yangi tanqid (New Criticism) yo‘nalishi vakillari matnni muallif biografiyasidan ajratib o‘rganishni ilgari sursa, poststrukturalizm va dekonstruksiya yo‘nalishi muallif maqsadini butunlay inkor etdi, natijada matnning kommunikativ tabiati e’tibordan chetda qoldi. Rus adabiyotshunosligida muallif shaxsidan nisbatan xoli holda matnning ichki badiiy qurilishini o‘rganish tamoyili rus formal maktabida shakllandi, keyinchalik bu yondashuv strukturalizm va Tartu–Moskva semiotik maktabida tizimli ravishda rivojlantirildi. M. M. Baxtinning dialogik konsepsiyasida esa bu talqin bir tomonlama ekani isbotlandi hamda matn

muallif, qahramon va o‘zga ong o‘rtasidagi muloqot maydoni sifatida talqin qilinib, muallif pozitsiyasi va kommunikativ munosabat masalasiga e’tibor qaratildi. XXI asrga kelib bahs “muallif niyati kerakmi yoki kerak emasmi?” tarzidagi mubohasadan uzoqlashib, “niyatning qaysi turi, qaysi sharoitda, qaysi dalillar asosida va qaysi talqin vazifasi uchun ahamiyatli?” degan aniqroq savollarga ko‘chdi.

Paisley Livingston, Sherri Irvin, Matthew Braddock, Kathleen Stock, John Farrell, Robbie Kubala, Peter Alward kabi G‘arb tadqiqotchilarining ishlari ijodiy niyatni matn ma’nosi, asar yaxlitligi, janr, kinoya, allyuziya, muallif mas’uliyati va kitobxon talqini bilan bog‘liq murakkab hodisa sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi.

Yozuvchi faqat asar yozishni emas, muayyan hayotiy materialni tanlashni, uni estetik qayta ishlashni, muayyan janr va ohangni tanlashni, qahramonlarni muayyan munosabatlar tizimiga joylashtirishni, kitobxonda turli savollarni uyg‘otishni ham ko‘zlaydi.

Paisley Livingston talqinicha, badiiy niyat ijodkorning bo‘lajak asar g‘oyasi va tuzilishini belgilaydi. Yozuvchi asarning umumiy yo‘nalishini bilishi, ammo qahramon nutqi, detallar, obrazlararo munosabatlar yoki yechimining ayrim jihatlarini yozish jarayonida topishi mumkin. Bunday topilmalar “niyatsiz” degani emas, ular keyinchalik muallif tomonidan tanlanadi, tahrir qilinadi va asar tizimiga qo‘shiladi [Livingston, 2005: 10]. Ijodkor niyati faqat badiiy asarni talqin qilish bilan bog‘liq masala bo‘lmay, badiiy ijod jarayoni, asar tabiati, matn va asar munosabati, asarning turli variantlari, muallif ijodiy merosi, badiiy to‘qima va badiiy haqiqat kabi masalalarni tushunishda ham muhim ahamiyatga ega. Olimning mulohazasiga ko‘ra, muallif niyati mutlaq mezon emas. Asar yaralishiga turtki bergan va ijod jarayonini boshqargan niyat bilan yakunlangan badiiy asar o‘rtasida muayyan tafovut bo‘lishi mumkin. Muallif niyati asarning yashirin ma’nolarini ifodalashga sezilarli ta’sir ko‘rsatgani bois ijodkorning asarga singdirgan maqsad va badiiy rejasini hisobga olish zarur. Demak, ijodiy niyat asar yaratilishidan oldin shakllanadigan fikr bilan cheklanmaydi, balki ijod jarayonida ham rivojlanib, o‘zgarib boradi.

Sherri Irvin fikrlari ham P. Livingston qarashlariga yaqin, ya’ni asar faqat muallif nimani anglatishni niyat qilgan bo‘lsa, shuni ifodalamasligini, uni matn ma’nosining yagona manbayi darajasiga ko‘tarish xato ekanini ta’kidlaydi. “So‘zlarning ma’nosi til me’yorlari bilan belgilanadi, shu sababli muallif niyati so‘zga istalgan ma’noni bera olmaydi. Shunga qaramay, muallif niyati asar ma’nosini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bois badiiy asar ma’nosini tushunishda muallif niyati bilan matn mazmuni o‘rtasidagi munosabatni hisobga olish zarur” [Irvin, 2006: 114]. Adabiyotshunos ijodkor “nimani aytmoqchi bo‘lgan”ini aniqlash bilan cheklanmay, bu niyat asarning badiiy tuzilishida qay darajada va qanday vositalar orqali amalga oshirilganini

ham tahlil qilishi kerakligini nazarda tutgan. Yozuvchi niyati asar ma'nosini shakllantirishda muhim, ammo asar mazmuni faqat muallif istagiga emas, balki matnning tili va badiiy tuzilishiga ham bog'liq.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda muallifni butunlay chetga chiqaruvchi yondashuvni John Farrell keskin tanqid qilib, har qanday niyat murakkab tarzda o'zaro uzviylashishi, yozuvchi bir vaqtning o'zida ijtimoiy hodisani tanqid qilish, qahramon fojiasini ko'rsatish, muayyan janr an'anasini yangilash, kitobxonni hayratlantirish va badiiy uslubini takomillashtirishni ko'zlashi mumkin. Bunday maqsadlar bir-birini to'ldirishi, yondosh holda kelishi yoki ayrim jihatlarda ziddiyatga kirishishi ham mumkinligi haqida mulohaza bildirgan. Adibning badiiy niyati fikrni ifodalash va kitobxonga ta'sir ko'rsatish o'rtasidagi bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Olimning nazdida, badiiy niyat — yozuvchining turli badiiy vositalar orqali kitobxonda muayyan taassurot hosil qilishida namoyon bo'ladi. Ijodkor kitobxonni hayajonlantirish, o'ylantirish, unga nimanidir anglatish, ilhomlantirish, kuldirish yoki g'azablantirishni ko'zlashi mumkin. Buning uchun u so'z tanlash, kompozitsiya, obraz, metafora, syujet, hikoya qilish usuli va janr imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalanadi. Asardagi har bir so'z, voqealarning joylashtirilishi, bir tafsilotning keng ko'lamda yoritilib, boshqasining qisqa berilishi muallifning muayyan badiiy ta'sirga erishish niyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin" [Farrell, 2017: 35]. Yuqoridagi tahlillar umumlashtirilib, ijodiy niyatni quyidagicha ta'riflash mumkin: ijodiy niyat — yozuvchining hayotiy voqelikni badiiy saralash, ifodalash, muayyan shakl va mazmun uyg'unligini yaratish, kitobxon idrokini yo'naltirishga qaratilgan, ijod jarayonida o'zgarib, takomillashib boradigan maqsadlar tizimidir. Ijodiy niyat muallif ruhiy olami bilan asar badiiy tizimini bog'lovchi omillardan biri sanaladi.

Ijodiy niyat hayotiy tajriba, davr muammolari, adabiy an'ana, o'qilgan asarlar, til imkoniyatlari va yozuvchining iste'dodi kesishgan nuqtada tug'iladi. Muallif ba'zan muayyan voqeadan, tarixiy hodisadan yoki biror shaxsdan ta'sirlanadi, ba'zan ruhiy holat, hatto bir detal asar yaratish ehtiyojini uyg'otadi. Ijodiy niyatning yuzaga kelish omillarini shartli ravishda biografik, ijtimoiy-tarixiy, estetik, janriy xususiyatlar bilan bog'liq omillarga ajratish mumkin:

Biografik omil adib bolaligi, kuzatuvi, ruhiy kechinmasi va dunyoqarashi bilan bog'liq. Biroq biografik ma'lumot bilan badiiy niyatni bir hodisa sifatida talqin qilib bo'lmaydi. Hayotiy voqelik tasviri matnda qisqartiriladi, boshqa hodisalar bilan qo'shiladi, zamon va makoni o'zgartiriladi, badiiy shaxslar taqdiri orqali qayta ifodalanadi. Shu bois ijodiy niyat biografik materialni estetik shaklga aylantirish tamoyilidir. Muallif boshdan kechirgan voqea asarda umuman boshqa maqsadga xizmat qilishi mumkin. Jeyms Joysning "Musavvirning yoshlikdagi shamoyili" romanida Stiven Dedalusning bolalik davridan boshlab mustaqil fikrlaydigan va ijodiy o'zligini anglagan shaxs

sifatida shakllanish jarayoni izchil badiiy talqin etilgan. Qahramonning ta’lim olishi, muhit bilan munosabati hamda san’atga oid qarashlarining tadrijida muallifning shaxsiy hayotiy tajribasi bilan mushtarak jihatlar kuzatiladi. Adib o‘z biografiyasiga xos ayrim jihatlarni badiiy qayta ishlab, qahramonning ma’naviy kamoloti, o‘zligini anglashi va ijodkor sifatida shakllanishini yoritgan. Natijada asarda shaxsiy tajriba bilan badiiy to‘qima uyg‘unlashib, ijodkor shaxsning shakllanishiga ta’sir etuvchi ruhiy, diniy va ijtimoiy omillar ochib berilgan.

Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” qissasida yozuvchining bolalik xotiralari, oilaviy hayoti va u yashagan davrdagi ijtimoiy sharoitlar tasvirlangan. Asarda oilaning moddiy qiyinchiliklari, qashshoqlik, ijtimoiy tengsizlik hamda kundalik turmushdagi murakkabliklar orqali o‘sha davr hayotining o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan. Muallif shaxsiy kuzatishlari va hayotiy tajribasini badiiy umumlashtirish orqali nafaqat o‘z bolalik xotiralarini, balki davrning ijtimoiy muhitini, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni va mavjud ziddiyatlarni ham yoritgan.

Ijtimoiy-tarixiy omil ijodiy niyatning davr bilan munosabatini belgilaydi. Urush, iqtisodiy inqiroz, modernizatsiya, migratsiya, ekologik muammo yoki madaniy qadriyatlar o‘zgarishi adib niyatini yuzaga keltirishi mumkin. Muallif ijtimoiy-tarixiy muammoni qaysi obrazlar qismati orqali ko‘rsatishi, qaysi ziddiyatni markazga qo‘yishi va voqelikka qanday yondashuvi niyatning individual xususiyatini namoyon qiladi. Bir davrda yashagan yozuvchilar ayni hodisadan mutlaqo boshqa badiiy maqsad ko‘zlashi mumkin. Erix Mariya Remarkning “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romanida Birinchi jahon urushi davrida Germaniya armiyasi tarkibidagi yosh askarlarning frontdagi hayoti va ruhiy kechinmalari tasvirlangan. Pol Boymer va uning safdoshlari misolida urushning inson hayoti va ma’naviy dunyosiga halokatli ta’siri ochib berilgan. Muallif yosh avlodning urushda yo‘qotishlari, umidsizligi hamda tinch hayotdan begonalashuvini badiiy ifodalash orqali front va front ortidagi hayot o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatgan. Yozuvchi urushni qahramonlik va shon-sharaf timsoli sifatida emas, inson umrini barbod qiluvchi, ma’naviy qadriyatlar inqiroziga sabab bo‘luvchi va butun bir avlod taqdirini izdan chiqaruvchi fojia sifatida talqin etgan.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy hayoti, Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati sharoitidagi munosabatlar va jamiyatdagi ma’naviy ziddiyatlar badiiy talqin etilgan. Asarda ayollarning ijtimoiy mavqeyi va eskicha qarashlarning inson taqdiriga ta’siri Zebi obrazi orqali ochib berilgan. Adib qahramon taqdiri orqali davrning ijtimoiy-siyosiy muammolarini umumlashtirib, mustamlakachilik sharoiti, ijtimoiy tengsizlikning inson erkinligi hamda jamiyat taraqqiyotiga ko‘rsatgan ayanchli ta’sirini badiiy ifodalagan.

Estetik omil yozuvchining go‘zallik, ulug‘vorlik, hayotiy haqiqat va mukammallik, xunuklik, fojia, kulgi haqidagi qarashlari bilan bog‘liq. Ijodiy niyat aynan shu nuqtada estetik ideal bilan tutashadi. Yozuvchi qaysi hayotiy materialni tanlashi, nimani ma’qullashi yoki inkor etishi ko‘p jihatdan uning estetik idealiga bog‘liq, estetik ideal ijodiy niyat vositasida obrazlar, badiiy detallar va konfliktlar tizimiga singdiriladi. Estetik omil yozuvchining asar yaratish jarayonida qanday badiiy maqsadni ko‘zlashini anglashga yordam beradi. Masalan, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida Farhodning mehnatsevarligi, fidoyiligi va xalqparvarligi uning ma’naviy go‘zalligini belgilaydi. Farhod va Shirin obrazlari orqali axloqiy fazilatlar, ma’naviy kamolot va insoniylik ochib beriladi. Shekspirning “Romeo va Julyetta” tragediyasida ikki yoshning samimiy muhabbati orqali insoniy tuyg‘ular bilan oilaviy adovat va eskirgan ijtimoiy qarashlar o‘rtasidagi ziddiyat ochib berilgan. Dramaturg fojiaviy voqealar orqali adovat va murosasizlikni tanqid qilib, insonlarni o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va totuvlikka chorlaydi.

Janr tanlovi bilan bog‘liq omil yozuvchi roman, qissa, hikoya, esse, she’riy yoki dramatik shaklni tanlashiga asoslanadi. Badiiy asarni qaysi janrga mansub qilib yaratish uning o‘qilish usuliga ta’sir qiladi. Hayot voqeligini keng qamrovda tasvirlanishi romanda, asosan bir yoki bir necha qahramon hayotining muayyan davri qissada, bir voqea yoki holat ixcham shaklda hikoyada ifodalanadi; voqelik konflikt, dialog va sahnaviy harakat orqali dramada ochiladi; ichki kechinmalar, tuyg‘u va ruhiy holat lirik janrlarda aks ettiriladi. Zamonaviy tasvir uslubida ijodkor janrning an’anaviy xususiyatlariga asoslanishi, buzishi, aralashtirishi yoki parodiya qilishi mumkin.

Uslubiy omil tildan foydalanish mahorati orqali amalga oshadi. So‘z tanlash, takror, ritm, sheva, tarixiy va eskirgan so‘zlar, metafora, kinoya, dialog va ichki monolog kabi vositalar niyatga mos holda qo‘llaniladi. Shu bois ijodiy niyatni anglashda yozuvchining qanday so‘zlarni tanlagani, gaplarni qanday tuzgani, qaysi ma’nolarni bevosita yoki bilvosita ifodalagani, qanday tasviriy vositalardan foydalangani muhim ahamiyatga ega. Til — yozuvchi niyatining matnda moddiylashgan shaklidir. Tarixiy roman muallifi arxaik va tarixiy so‘zlardan foydalanish orqali davr ruhini tiklaydi. Qahramon nutqidagi sodda yoki murakkab jumlalar esa uning ijtimoiy mavqeyi, dunyoqarashi va ruhiy holatini ochishga xizmat qiladi. Metafora, majoz, ramz, o‘xshatish, kinoya, allegoriya kabi vositalar muallifga fikrni obrazli tarzda ifodalash imkonini beradi. Yozuvchining ijodiy niyatni qanday til vositalari orqali ifodalagani va matnda qay darajada amalga oshirgani lingvopoetik jihatdan tahlilga tortiladi.

Kommunikativ omil kitobxonga murojaati bilan bog‘liq. Yozuvchi asar yaratishda uning kim tomonidan, qanday sharoitda va qay tarzda qabul qilinishini ham bevosita yoki bilvosita hisobga oladi. Bu qabul qiluvchi kitobxon yoki muallif tasavvuridagi o‘quvchi bo‘lishi mumkin. Muallif

tarixiy hodisani tasvirlar ekan, kitobxon uni anglay olishi uchun qo‘shimcha izoh yoki badiiy ishoralardan foydalanadi. Ma’lum bilimga ega kitobxon nazarda tutilsa, ayrim ma’nolar ochiq izohlanmay, bilvosita berilishi mumkin. Shu jihatdan kommunikativ omil muallif niyati bilan kitobxonning asarni tushunishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlaydi.

Psixologik omil qahramon ruhiyati, ichki kechinmalari, hissiy holatlar, motiv va ong oqimi jarayonlarini badiiy ifodasiga qaratilgan. Yozuvchi qahramonning ichki ziddiyatlari, ikkilanishi, qo‘rquvi, iztirobi, orzu-intilishlarini tasvirlash orqali muayyan maqsadni ko‘zlaydi. Bunday niyat ichki monolog, ong oqimi, xotira, tush, detal, dialog, monolog va muallif tavsifi kabi vositalar orqali namoyon bo‘ladi. Psixologik omil qahramonning ichki dunyosini chuqurroq yoritish imkonini beradi. Muallif qahramon ruhiy holatini ochish orqali kitobxonni uning kechinmalariga yaqinlashtirishni maqsad qilishi mumkin. Psixologik omil ijodiy niyatning inson ruhiyatini badiiy idrok etish va uni matnda ishonarli ifodalashga qaratilgan muhim tarkibiy qismidir. F.Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” romanida Rodion Raskolnikovning jinoyat sodir etishdan oldingi ruhiy kechinmalari, jinoyatni amalga oshirish jarayonidagi ichki kurashi va undan keyingi iztiroblari tasvirlangan. Jinoyatdan so‘ng qahramonning ichki dunyosida keskin ziddiyat yuzaga kelib, qo‘rquv, shubha, yolg‘izlik va vijdon azobi tobora kuchayadi. Yozuvchi Raskolnikovning ruhiy azoblari iskanjasida qolishi orqali jinoyatning nafaqat tashqi, balki ma’naviy oqibatlarini ham ko‘rsatadi hamda vijdon, insoniylik masalalarini o‘rtaga qo‘yadi.

Abdulla Qahhorning “Sarob” romanida Saidiyning ruhiy kechinmalari, maqsad-intilishlari orqali inson ruhiyatining murakkab jihatlari ochib berilgan. Asarda qahramonlarning o‘z imkoniyatlarini anglash, hayotda munosib o‘rin topish va orzu-maqsadlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lidagi qiyinchiliklari mohirona ifodalangan. Saidiy obrazi asarning g‘oyaviy mazmunini yoritish va inson xarakterining murakkabligini ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillardan ayonlashadiki, sarlavha, janr, syujet, kompozitsiya, roviy, qahramon, zamon-makon, til, detal va ramz singari unsurlar asosida niyat haqida xulosa chiqarish mumkin. Niyatni matndan ajratib, faqat muallifning izohiga tayanish asar haqida to‘liq tasavvur bermaydi.

Asar sarlavhasi aniqlik va qisqalikni talab etib, bir yoki bir necha so‘zda ifodalanishi, yuzlab sahifalarga sochilgan mazmunni o‘zida jamlashi, nomlanishidanoq kitobxonni o‘ziga jalb qilishi lozim. Badiiy asarning nomi — semiotik kalit. Kalit esa mohiyati, borlig‘ini belgilovchi konsepsiyaning aniq, lo‘nda ifodasi. Ifodalanayotgan konsepsiya hayotiy, to‘liq anglab yetilgan bo‘lsa, yozuvchi dastxati ravon, jumlayu kalomlar mag‘izi to‘q bo‘ladi. Badiiy asar konsepsiyasi goho tasvir predmeti salmog‘i deb ham ataladi. Tasvir predmeti salmog‘i janrni belgilashda qo‘l keladi. Janrlar,

xususan, roman, qissa, hikoya ta’rifi berilganda, ko‘pincha tashqi (yuzaki) salmoqqa e’tibor qaratish udumi avj olgan. Janr, sarlavha, konsepsiya (tasvir predmeti salmog‘i) asarning ilk semiotik markazida yarqirab ko‘zga tashlanadi. Ilk semiotik markaz deganda aksariyat hollarda birinchi misra (satr, jumla) tushuniladi. Ilk jumla (satr, misra) birinchi taassurot, asar haqidagi g‘ayrishuuriy anglash manbai ekanligidan tashqari semiotik markazga yo‘l ko‘rsatuvchi ishora hamdir [Rasulov, 2007: 52-53]. Sarlavha ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan, sarlavha — matnning tashqarisida joylashgan va muayyan mustaqillikka ega. Boshqa tomondan, u matnning to‘laqonli tarkibiy qismi sifatida asarning boshqa tarkibiy qismlari bilan uzviy bog‘liq. Demak, sarlavha muallifning asarni yaratishdagi badiiy maqsadini, badiiy asarning o‘ziga xos xususiyatini aks ettiradi.

Epigraf va bag‘ishlov muallif niyatini asar matniga kirishdan oldin anglatadigan vosita sifatida talqin qilish mumkin. Ular asar mazmunini to‘liq ochib bermaydi. Epigraf muallifning asarga singdirmoqchi bo‘lgan asosiy g‘oyasiga ishora qiladi. Shu jihatdan epigraf ijodiy niyatning qisqa va bilvosita ifodasi hisoblanadi. Kitobxon mutolaa jarayonida epigrafga qayta-qayta ma’no yuklab, uni asar voqealari va obrazlari bilan bog‘lab talqin qiladi. Yozuvchi asarni muayyan shaxsga, avlodga, xalqqa yoki qadriyatga bag‘ishlar ekan, bu orqali ijodiy niyatini, ma’naviy munosabatini muayyan darajada belgilaydi. Bag‘ishlov paratekstual unsur bo‘lib, u muallifning kimga yoki nimaga murojaat qilayotganini, qanday qadriyatlarni e’zozlashini va kitobxonni asarni qanday ruhda qabul qilishga yo‘naltirayotganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan bag‘ishlov ijodkor, asar va kitobxon o‘rtasidagi munosabatni shakllantiruvchi vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bag‘ishlov hatto asarning g‘oyaviy mazmuniga ham ta’sir qilishi mumkin, chunki unda muallif munosabati, ehtiromi, minnatdorligi ifodalanadi.

Mavzu tanlashda ijodiy niyat hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ijodkor turli zamon va makonlardagi son-sanoqsiz voqea-hodisalar, insoniy munosabatlar va muammolar orasidan aynan o‘zini qiziqtirgan, badiiy talqin etishga ehtiyoj sezgan jihatni tanlaydi. Ijodiy niyat mavzuning qaysi jihatdan yoritilishini ham belgilaydi. Bir xil mavzu turli yozuvchilar tomonidan mutlaqo boshqacha talqin qilinadi, chunki ularning ijodiy maqsadi va voqelikka munosabati farqli.

Syujet ifodasida ijodiy niyat asardagi voqealarning izchil tartiblanishi va mantiqan bog‘lanishini belgilovchi omil hisoblanadi. Yozuvchi hayotiy voqelikni o‘z badiiy maqsadiga muvofiq tarzda tasvirlaydi, ularni rivojlantiradi. Ijodiy niyat ekspozitsiya, voqealar rivoji, konfliktning kuchayishi, kulminatsiya va yechim kabi tarkibiy qismlarining qanday tashkil etilishini ham belgilaydi. Shuningdek, syujetning tezligi, dramatizmi, sabab-oqibat aloqalari va voqealar ketma-ketligiga ham ta’sir qiladi. Retrospeksiya, prospeksiya, parallel syujet chiziqlari, ochiq yoki yopiq yechim kabi usullar muallifning badiiy maqsadidan kelib chiqib tanlanadi. Demak, syujet

yozuvchining g‘oyaviy-estetik maqsadini kitobxonga yetkazishda muhim vosita vazifasini bajaradi.

Kompozitsiya unsurlarini yaratishda ijodiy niyatning ahamiyati katta. Ijodkor asarning g‘oyaviy-badiiy maqsadidan kelib chiqib peyzaj, portret, badiiy detal, epigraf, kiritma epizod, tush va lirik chekinish kabi unsurlarni tanlaydi hamda ularga muayyan vazifa yuklaydi. Xususan, peyzaj qahramonning ruhiy holatini ochish, uning kechinmalariga uyg‘un yoki kontrast tasvir yaratish, keyingi voqealarga ishora qilish va asarning g‘oyaviy mazmunini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Badiiy detal esa personaj xarakteri, ichki kechinmalari va makonning muhim belgilarini ixcham va ta’sirchan ifodalash imkonini beradi. Shuning uchun muallifning ijodiy niyati kompozitsion unsurlarning tanlanishi va asar tarkibidagi o‘rnini belgilab, ularni yagona badiiy maqsadga bo‘ysundiradi.

Roviy ijodiy niyatga muvofiq tanlanadi. Adib asar voqealarini kimning nuqtayi nazaridan va qay tarzda bayon etishni oldindan belgilaydi. Voqealarni birinchi shaxs, uchinchi shaxs tilidan yoki muayyan personaj nuqtayi nazaridan berishi mumkin. Bu kitobxonning voqealarni idrok qilishi, qahramonlarga munosabati va asar mazmunini anglashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Birinchi shaxs hikoyachisi voqealarni subyektiv nuqtayi nazardan yoritsa, kuzatuvchi roviy muallifga voqelikni kengroq qamrab olish va turli personajlar taqdirini o‘zaro bog‘liq holda tasvirlash imkonini beradi. Shu bois, roviy ijodiy niyatning bevosita ifoda vositalaridan biri bo‘lib, asarning nuqtayi nazar tizimi va g‘oyaviy-estetik ta’sirini shakllantirishga xizmat qiladi. Muallif bilan roviyni tenglashtirish xato. Muallif aynan roviyning dunyoqarashi, nigohi orqali kitobxonga murojaat qiladi.

Ramz ijodiy niyatning ko‘p ma’noli shakli sifatida o‘ziga xos. Yozuvchi hayot haqidagi qarashlarini obrazlar, ramzlar va boshqa badiiy vositalar orqali ifodalaydi. Shu jihatdan ramz adibning g‘oyaviy-estetik qarashlarini obrazli shaklda mujassamlashtiruvchi vosita hisoblanadi. Zamonaviy adabiy jarayonda ramzning vazifasi yanada kengaydi. U inson ruhiyati, ong osti, ichki kechinmalar va murakkab idrok jarayonlarini ifodalashga xizmat qiladigan badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ramzning tanlanishi va unga yuklangan ma’no ijodiy niyat bilan bevosita bog‘liq. Muallif muayyan ramz orqali asar g‘oyasini kuchaytiradi, kitobxonni yashirin ma’nolarni anglashga undaydi. Natijada ramz ma’no hosil qiluvchi, obrazlarni o‘zaro bog‘lovchi va ijodiy niyatni chuqurroq ifodalovchi vosita vazifasini bajaradi.

Kinoya orqali adib o‘z munosabatini yashirin, ma’noni teskari ifodalash yoki zohiriy va botiniy mazmun o‘rtasida ziddiyat hosil qilish yo‘li bilan namoyon etadi. Kinoya ijodiy niyatni bilvosita ochib beruvchi badiiy vosita hisoblanadi. Ijodiy niyat kinoyaning kimga yoki nimaga qaratilgani, qay darajada keskin yoki yumshoq ifodalanishini belgilaydi. Ijodkor kinoya orqali qahramonning nuqsonini fosh qilishi, muayyan ijtimoiy holatga tanqidiy munosabat

bildirishi, voqelikdagi ziddiyatni ochishi yoki kitobxonni tashqi ma'no ortidagi haqiqiy mazmunni anglashga undashi mumkin. Kinoyada so'zning zohiriy ma'nosi bilan muallif ko'zlagan baho o'rtasida masofa bo'ladi. Agar kitobxon kinoyani sezmasa, matnning mohiyatini tushunib yetmaydi.

Allyuziya va intermatnlilik ijodiy niyatni ifodalashning muhim vositalaridan biri sanaladi. Muallif boshqa asar, mif, tarixiy voqea, diniy asar, mashhur obrazga ishora qilish orqali yangi matnning ma'no doirasini kengaytiradi. Bunday murojaat muallifning muayyan g'oyaviy-estetik maqsadiga xizmat qiladi. Shu sababli allyuziya ijodiy niyatni bilvosita anglatadigan, kitobxonni mavjud asar bilan yangi matn o'rtasida aloqa o'rnatishga undaydigan badiiy vosita hisoblanadi. Intermatnlilik esa asarning boshqa matnlar bilan aloqasini yuzaga keltiradi. Muallif avvalgi matndan iqtibos, motiv, obraz, ramz yoki uslubiy shaklni qayta qo'llash orqali unga yangi mazmun yuklashi mumkin. Ular orqali yozuvchi asarning mazmunini kengaytiradi, yashirin ma'nolar hosil qiladi, kitobxonning assotsiativ tafakkurini faollashtiradi.

Yozuvchining ijodiy niyatiga ko'ra badiiy makon va zamon tanlanadi, chunki adabiy asar real hayotning muayyan qisminigina badiiy ifoda etadi. Badiiy so'z ustasi ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda, zamon va makonni adabiy yangicha kashf qilish, ularni istagancha erkin tanlash, bir kunga asrlarni, asrga esa bir kunni sig'dirishdek badiiy zamon hamda badiiy makondan ijodiy erkin foydalanish mahoratini namoyon qiladi. Badiiy olam uning o'zida tasvirini topgan real voqelik kabi zamon va makonda mavjud bo'ladi. Badiiy zamon obraz xarakterini ochish, asardagi voqealarni o'zaro bog'lash va ularni yaxlit holda idrok etishga yordam beradi, muallif yaratgan badiiy voqelikni bir butun shaklda namoyon etib, asar kompozitsiyasini tashkil qiladi [Fyodorov, 1984: 81]. Ijodkor voqealar sodir bo'ladigan zamon va makonni tasodifan tanlamaydi, ular asarning g'oyaviy yo'nalishi, qahramonlar taqdirini ochishga xizmat qiladi. Ijodiy niyat zamonning qay tarzda ifodalanishini ham belgilaydi. Voqealar xronologik izchillikda, retrospeksiya asosida yoki turli zamon qatlamlarining parallel ifodasida berilishi mumkin. Bu orqali muallif qahramon xotirasi, o'tmish va bugun o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Makon esa qahramonning ijtimoiy muhiti, ruhiy holati, begonalashuvi, erkinligi yoki muayyan madaniy muhitga mansubligini tasvirlashga xizmat qiladi.

Ochiq va yopiq yechim ifodasi ham muallifning ijodiy niyati bilan bevosita bog'liq. Muallif asar voqealarini qay tarzda yakunlash orqali kitobxonning voqealarga munosabati, qahramonlar taqdirini anglash jarayoni va asar g'oyasini qabul qilishiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Yopiq yechimda asosiy ziddiyatlar hal etiladi, qahramonlar taqdiri muayyan yakunga olib kelinadi va asar mazmuni nisbatan tugallanadi. Bunday yechim muallifga o'z ijodiy niyatini aniqroq ifodalash, voqealarga muayyan xulosa berish imkonini beradi. Ochiq yechimda esa voqealar to'liq hal etilmaydi, ayrim savollar javobsiz qoladi yoki qahramon taqdiri jumboqli yakunlanadi. Bu usul

kitobxonni mustaqil mushohadaga, voqealarning ehtimoliy davomini tasavvur etishga va asarning yashirin ma’nolarini izlashga majbur qiladi. Shu jihatdan, ochiq va yopiq yechim ijodiy niyatning asar yakunida namoyon bo‘lish shakllari bo‘lib, muallif xulosani qay darajada aniq yoki ochiq qoldirishini belgilaydi.

Xulosa

Umuman, ijodiy niyat matndagi unsurlarning o‘zaro munosabati va uzviyligi orqali to‘laqonli namoyon bo‘ladi. Ijodiy niyat asarning yaratilishiga asos bo‘ladi, ammo badiiy mazmunni to‘liq belgilamaydi. U muallifning g‘oyasi, estetik qarashlari, hayotiy voqelikni tanlash va tarixiy sharoit ta’sirida shakllanadi. Badiiy asar mavzusi, syujeti, kompozitsiyasi, obrazlar tizimi, roviy, zamon va makon, ramz, detal, til vositalari hamda yechim kabi unsurlar bir-birini to‘ldirgan holda ijodkorning badiiy maqsadiga xizmat qiladi. Shu bois ijodiy niyatni to‘liq anglash uchun ayrim unsurni alohida tahlil qilishning o‘zi yetarli emas, uning boshqa unsurlar bilan qanday bog‘langani va umumiy mazmunni shakllantirishdagi vazifasi inobatga olinadi. N. Kerrollning muallif niyatiga asoslangan mo‘tadil talqin (modest actual intentionalism) nazariyasi mohiyatiga ko‘ra asosli ekani ayonlashadi.

Ijodiy niyat va badiiy ijod mahsuli o‘rtasida uch xil munosabat kuzatiladi: niyat to‘liq amalga oshishi, qisman amalga oshishi yoki ijod jarayonida o‘zgarishi. Ba’zan kutilmagan o‘zgarishlar yangi badiiy imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

V. Uimsatt, M. Berdsli, N. Kerroll, E. Bennett qarashlari hamda narratologik yondashuvlar muallif niyatini turli jihatlardan o‘rganishga imkon beradi. Ijodiy niyatni o‘rganishda uch bosqichli tahlil samarali hisoblanadi: niyatning shakllanishi, uning badiiy ifodalanishi va yuzaga kelgan badiiyat namunasi. Bu yondashuv asarning yaratilish jarayoni bilan uning badiiy xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga yordam beradi.

Ijodiy niyatning yuzaga kelishi yozuvchining hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va kechinmalari, ijtimoiy-tarixiy sharoit, estetik qarashlari hamda tanlangan janrning o‘ziga xos xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq. Mazkur omillar ijodiy niyatning shakllanishi, boyishi va badiiy asar g‘oyasiga aylanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ijodiy niyatni shartli ravishda biografik, ijtimoiy-tarixiy, estetik va janriy xususiyatlar bilan bog‘liq omillar asosida tasniflash ijodkor tafakkuri va badiiy ijod jarayonining mohiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Biroq ushbu omillar o‘zaro ta’sir va aloqadorlikda namoyon bo‘lib, ijodiy niyatning o‘ziga xosligi hamda badiiy asarning xususiyatlarini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Арасту. Ахлоқи кабир. Таржимонлар Зоҳир Аълам ва Урфон Отажон. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. — 352 б.

Carroll N. Interpretation and Intention: The Debate between Hypothetical and Actual Intentionalism // Metaphilosophy. — 2000. — Vol. 31, No. 1—2. — P. 75—95. https://doi.org/10.1111/1467-9973.00131

Farrell J. The Varieties of Authorial Intentions: Literary Theory Beyond the Intentional Fallacy. — Cham: Palgrave Macmillan, 2017. — 274 p.

Fitrat, Abdurauf. Adabiyot qoidalari. Tanlangan asarlar: darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar. Toshkent: Ma’naviyat, 2009. — B. 11-87.

Hirsch E. D. Validity in Interpretation. — New Haven: Yale University Press, 1973. — 304 p.

Irvin S. Authors, Intentions and Literary Meaning // Philosophy Compass. — 2006. — Vol. 1. — P. 114–128. https://doi.org/10.1111/j.1747-9991.2006.00016.x

Kubala R. Literary Intentionalism: A Shared Interpretive Policy // Metaphilosophy, 2019. — Vol. 50, no. 4. — P. 503–515. https://doi.org/10.1111/meta.12369

Livingston P. Art and Intention: A Philosophical Study. — Oxford: Clarendon Press, 2005. — 251 p. https://doi.org/10.1353/nlh.1998.0042

Livingston P. Intentionalism in Aesthetics / P. Livingston // New Literary History, 1998. — Vol. 29, no. 4. — P. 831—846.

Oybek. “Navoiy” romanini qanday yozdim. // https://ziyouz.uz/matbuot/sovet-matbuoti/oybek-navoiy-romanini-qanday-yozdim/?lng=lat

Stock K. Only Imagine: Fiction, Interpretation, and Imagination / K. Stock. — Oxford: Oxford University Press, 2017. https://doi.org/10.1093/oso/9780198798347.001.0001

Wimsatt W. K., & Beardsley M. C. The intentional fallacy. In J. Margolis (Ed.), Philosophy Looks at the Arts (3rd ed.,). Philadelphia: Temple University Press, 1987. — P. 367—380.

Йўлдош Қ. Ёниқ сўз: адабий ўйлар. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. — 548 б.

Расулов А. Бадиийлик — безавол янгилик. — Т.: Шарқ, 2007. — 337 б.

Рустамов, А. Сўз хусусида сўз. — Тошкент: Ёш гвардия, 1987. — 160 б.

Фёдоров В.В. О природе поэтической реальности. — М.: Советский писатель, 1984. — 184 с.

Шамс ад-Дин Мухаммад ибн Кайс ар-Рази. Свод правил персидской поэзии (ал-Му‘джам фи ма‘айир аш‘ар ал-‘аджам). Ч. II. О науке рифмы и критики поэзии / Пер. с персидск., исслед. и коммент. Н. Ю.

Чалисовой. — М.: Издательская фирма “Восточная литература” РАН, 1997. — 470 с.

Manbalar

Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами: йигирма томлик. 13-том. Матнни изоҳ ва таржималар билан нашрга тайёрловчи С. Ғаниева. — Тошкент: Фан, 1997. — 300 б.

Qodiriy A. O‘tkan kunlar. Roman. — Toshkent: Sharq matbaa nashriyoti. 2009. — 383 b.

Qodiriy, Abdulla. Ijod mashaqqati: badiiy ijod to‘g‘risidagi fikr va mulohazalar. — Toshkent: O‘qituvchi, 1995. — 16 b.

Qodirov P. Yulduzli tunlar. (Bobur). Tarixiy roman. — Toshkent: Sharq matbaa nashriyoti. 1999. — 543 b.

Qoriyev M. Spitamen. Tarixiy roman. — Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1985. — 270 b.

References

Aristotle. (2015). Axloqi kabir [Great ethics] (Z. A’lam & U. Otajon, Trans.). Yangi asr avlodi.

Carroll, N. (2000). Interpretation and intention: The debate between hypothetical and actual intentionalism. Metaphilosophy, 31(1–2), 75–95. https://doi.org/10.1111/1467-9973.00131

Farrell, J. (2017). The varieties of authorial intention: Literary theory beyond the intentional fallacy. Palgrave Macmillan. https://doi.org/10.1007/978-3-319-48977-3

Fedorov, V. V. (1984). O prirode poeticheskoy realnosti [On the nature of poetic reality]. Sovetskiy pisatel.

Fitrat, A. (2009). Adabiyot qoidalari [Rules of literature]. In *Tanlangan asarlar: darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar* (pp. 11–87). Ma’naviyat.

Hirsch, E. D., Jr. (1973). Validity in interpretation. Yale University Press.

Irvin, S. (2006). Authors, intentions and literary meaning. Philosophy Compass, 1(2), 114–128. https://doi.org/10.1111/j.1747-9991.2006.00016.x

Kubala, R. (2019). Literary intentionalism: A shared interpretive policy. Metaphilosophy, 50(4), 503–515. https://doi.org/10.1111/meta.12369

Livingston, P. (1998). Intentionalism in aesthetics. New Literary History, 29(4), 831–846. https://doi.org/10.1353/nlh.1998.0042

Livingston, P. (2005). Art and intention: A philosophical study. Clarendon Press. https://doi.org/10.1093/0199278067.001.0001

Oybek. (2017, February 24). “Navoiy” romanini qanday yozdim [How I wrote the novel “Navoiy”]. Ziyouz.uz. https://ziyouz.uz/matbuot/sovet-matbuoti/oybek-navoiy-romanini-qanday-yozdim/?lng=lat

Rasulov, A. (2007). Badiiylik — bezavol yangilik [Artistry: Enduring novelty]. Sharq.

Rustamov, A. (1987). So‘z xususida so‘z [A word about the word]. Yosh gvardiya.

Shams ad-Din Muhammad ibn Kays ar-Razi. (1997). Svod pravil persidskoy poezii (al-Mu‘dzham fi ma‘ayir ash‘ar al-‘adzham). Ch. II. O nauke rifmy i kritiki poezii [Compendium of the rules of Persian poetry (al-Mu‘jam fi ma‘ayir ash‘ar al-‘ajam). Part II: On the science of rhyme and poetry criticism] (N. Yu. Chalisova, Trans.). Vostochnaya literatura RAN.

Stock, K. (2017). Only imagine: Fiction, interpretation and imagination. Oxford University Press. https://doi.org/10.1093/oso/9780198798347.001.0001

Wimsatt, W. K., & Beardsley, M. C. (1987). The intentional fallacy. In J. Margolis (Ed.), Philosophy looks at the arts (3rd ed., pp. 367–380). Temple University Press. (Original work published 1946)

Yo‘ldosh, Q. (2006). Yoniq so‘z: Adabiy o‘ylar [The burning word: Literary reflections]. Yangi asr avlodi.

Sources

Alisher Navoiy. (1997). Mukammal asarlar to‘plami: Yigirma tomlik [Complete works in twenty volumes] (S. G‘aniyeva, Ed.; Vol. 13). Fan.

Qodiriy, A. (1995). Ijod mashaqqati: Badiiy ijod to‘g‘risidagi fikr va mulohazalar [The challenges of creative work: Thoughts and reflections on literary creation]. O‘qituvchi.

Qodiriy, A. (2009). O‘tkan kunlar: Roman [Bygone days: A novel]. Sharq matbaa nashriyoti.

Qodirov, P. (1999). Yulduzli tunlar (Bobur): Tarixiy roman [Starry nights (Babur): A historical novel]. Sharq matbaa nashriyoti.

Qoriyev, M. (1985). Spitamen: Tarixiy roman [Spitamen: A historical novel]. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.